



**ELEKTRON HUKUMAT: BYUROKRATIYA VA  
KORRUPTSIYAGA QARSHI ATRIBUT**

**Suyunov Sunnatullo Quvondiqovich  
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti  
Bakalavr 2-bosqich  
E-mail:sunnatulloosuyunov22@gmail.com**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada elektron hukumat fenomeni o'zi nima ekanligidan tortib, uning byurokratiya va korrupsiya kabi siyosiy illatlarni cheklashdagi ahamiyati tahlil qilinadi, hamda dunyoda elektron hukumat platformalarining korrupsiya muammolarini hal qilishdagi o'rni to'grisida ma'lumot beruvchi diagramma ham o'rin olgan. O'zbekiston Respublikasida elektron hukumat faoliyati davomida hal etgan va etayotgan foydali jihatlari haqida ham tahlil boradi. Muammolarni oshkor etish bilan cheklanmasdan, balki unga jahon tajribasidan asosli yechimlar taklif etiladi.

**Аннотация:** В данной статье анализируется феномен электронного правительства: от его сути до значения в ограничении таких политических проблем, как бюрократия и коррупция. Также представлен обзор исследований, освещающих роль платформ электронного правительства в решении проблем коррупции в мире. Кроме того, рассматриваются положительные аспекты деятельности электронного правительства в Республике Узбекистан и его достижения в этом направлении. Помимо выявления существующих проблем, предложены обоснованные решения на основе международного опыта.

**Abstract:** This article analyzes the phenomenon of e-government, from its definition to its importance in curbing political issues such as bureaucracy and corruption. The article also includes research that highlights the role of e-government platforms in addressing corruption issues worldwide. Additionally, it examines the positive aspects and ongoing benefits of e-government in the Republic



of Uzbekistan. Beyond identifying existing challenges, the article proposes well-founded solutions based on international experience.

**Kalit so'zlar:** *Elektron hukumat, byurokratiya, korrupsiya, siyosiy illat, tendentsiya.*

**Ключевые слова:** *Электронное правительство, бюрократия, коррупция, политические пороки, тенденция.*

**Key words:** *E-government, bureaucracy, corruption, political flaws, trends.*

Raqamli texnologiyalar hayotimizning har bir sohasida chuqur o'rin olib bormoqda. Davlat boshqaruvi ham zamon talablari bilan moslashib, fuqarolarga xizmatlarni tez va shaffof taqdim etish uchun yangi yondashuvlarni tatbiq qilmoqda. Elektron hukumat aynan shunday yondashuvlarning mahsuli bo'lib, uning maqsadi davlat xizmatlarini fuqarolar uchun oson va ochiq shaklda taqdim etishdir. Bu tushuncha bir qarashda oddiygina texnologik o'zgarishdek tuyulsa-da, aslida, elektron hukumat tizimi davlat boshqaruvida inqilobiy o'zgarishlarga yo'l ochadi hamda uning korrupsiya kabi siyosiy illatlarga qarshi turishida tayanch bo'lib xizmat qiladi. Shunga qaramay, ba'zi tanqidchilar uni byudjet mablag'larini samarasiz ishlatish vositasi deb ko'rishadi.

Mazkur maqolada elektron hukumat tushunchasi, uning jamiyatdagi siyosiy illatlar, xususan korrupsiya va byurokратиyani kamaytirishga qaratilgan ijobiy ta'sirlari tahlil qilinadi. Elektron hukumatga turlicha ta'riflar mavjud ba'zilar unga davlat hokimiyatining zamon ruhiga adaptatsiyalashuvi natijasida vujudga kelgan tendentsiya sifatida qarasa, boshqalar esa elektron hukumat bu shunchaki byudjet mablag'larini suiiste'mol qilishni hohlovchi ba'zi amaldorlar qo'lidagi navbatdagi ortiqcha loyiha deb hisoblaydi.

Aslida elektron hukumat bu yuridik shaxslardan tortib oddiy fuqarolarga hukumat xizmatlarini ortiqcha ovvoragarchiliklarsiz taqdim etish, hamda ular bilan



muloqot qilishning durust<sup>1</sup> vositasidir. Elektron hukumatni siyosiy illatlarga qarshi atribut deb atar ekanmiz, avvalo siyosiy illat tushunchasiga ta'rif berishni joiz deb bilaman.

Siyosiy illat – bu davlat boshqaruvi, siyosiy tizim, hukumat faoliyati yoki jamiyatda bo'lib turadigan jarayonlarda yuzaga keladigan va kishilarga zarar yetkazadigan siklli muammolarini takrorlanishiga aytiladi. Siyosiy illatlar, odatda, korrupsiya, adolatsizlik, inson huquqlarining buzilishi kabi hodisalarni o'z ichiga oladi.

Misol sifatida, agar davlatda lobbizm harakatlari kuchaysa, u holda jamiyatdagi tenglik, adolatga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada, sodda fuqarolar manfaatlariga ko'pincha shikast yetkaziladi va bu jamiyatda ishonchsizlik muhitiga olib keladi. Bu esa jamiyatda stratifikatsiyaning avj olib, marginal qatlamlarning keskin ko'payishiga olib kelish ehtimoli ham mavjud bo'lib qoladigan vaziyatga olib kelishi mumkin. Siyosiy illatlarni kamaytirish uchun davlatda shaffoflikni oshirish, adolatli qonunlar ishlab chiqish, fuqarolarning siyosiy jarayonlarga faol ishtirokini qo'llab-quvvatlash lozim.

Elektron hukumat platformalarida iloji boricha barcha jarayonlar shaffoflik prinsipi asosida tashkil etilishi tizimda siyosiy illatlarga qarshi fuqarolar va jamoat birlashmalarining ortiqcha rasmiyatchiliksiz davlat idoralari faoliyatini tom ma'noda nazorat qilish imkoniyatini tug'dirishi hokimiyat tizimida byurokratiyaga qarshi samarali vosita sifatida bosh rolga chiqadi.

Elektron hukumat fuqarolarga onlayn xizmatlarni masofadan turib ko'rsatish orqali ularning uzog'ni yaqin qilish imkoniyatini ham paydo qilibligina qolmay avtomatlashtirilgan jarayonlar va algoritmlar yordamida inson omili tufayli vujudga

---


<sup>1</sup> O'ZBEK TILINING IZOHLI LUG'ATID XARFI.;«O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti.;TOSHKENT.;2013-y.;654-b



kelishi mumkin bo'lgan xatolari kamayadi, bu esa soxta ma'lumotlar yoki korrupsiya imkoniyatlarini qisqartiradi<sup>2</sup>.

Elektron tizimlar orqali har bir jarayon va xizmatning tarixi saqlanadi, bu esa korrupsiya va byurokratiya holatlarini nazorat qilishni osonlashtiradi. Elektron hukumat platformalari natijalarni tez va samarali tarzda taqdim etishi, fuqarolarning o'z fikrlarini bildirish imkoniyatini berishi, hukumatning ishlash samaradorligini oshiradi. Umuman olganda, elektron hukumatning ushbu jihatlari byurokratiya va korrupsiyaga qarshi kurashda muhim rol o'ynaydi va davlat xizmatlarining sifatini oshirishga yordam beradi.

2003-yildan 2015-yilga qadar elektron hukumat rivoji oqibatida korrupsiyani qisqarishi borasida bir guruh Massachusetts universiteti tadqiqotchilari tomonidan 57 mamlakatda panel ma'lumotlar o'rganildi<sup>3</sup>. Quyidagi 1-rasmga qarang:



Tushuntirish uchun shuni ayta olamanki chap tarafdagi nominal o'lchovlar korrupsiyani -2 darajasidan 2 darajasigacha ifoda etgan, EHRI ya'ni Elektron Hukumat Rivojlanish Indeksi (0-75 ballik tizimida baholangan) yuqori bo'lgan

<sup>2</sup> Manoharan, Aroon P.; Melitski, James; Holzer, Marc (20 January 2022). "Digital Governance: An Assessment of Performance and Best Practices". *Public Organization Review*. **23** (1): 265–283.

<sup>3</sup> Haoyu Zhao and Michael J. Ahn, University of Massachusetts, Boston, USA. "E-Government, Corruption Reduction and the Role of Culture". *Public Organasition Review*. 7-8.



mamlakatlar ko'rsatilgan gorizontol perspektivada esa korrupsiya darajasi nisbatan elektron hukumatlar bo'lmagan mamlakatlarnikidan ancha yaxshi ekanligini guvohi bo'lamiz.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, e-hukumat rivojlanishi barcha mamlakatlarda korrupsiya darajalarining pasayishiga ijobiy ta'sir ko'rsatsada, natija boshqa omillarga ham bog'liq. O'zbekiston Respublikasida ham 2023-yil 31-dekabr holatiga YIDXP (Yagona Ijtimoiy Davlat Xizmatlari Portali) foydalanuvchilari 8 mln nafarni tashkil etdi. Foydalanuvchilarning 56,2 foizi erkaklar, 43,8 foizini ayollar tashkil etmoqda<sup>4</sup>.

#### Foydalanuvchilarning yosh bo'yicha taqsimlanishi

Foydalanuvchi yoshi	Umumiy miqdordagi ulushi
18 yoshgacha	1,8 foiz
19-24 yosh oralig'ida	18,6 foiz
25-34 yosh oralig'ida	31,5 foiz
35-44 yosh oralig'ida	23,4 foiz
45-54 yosh oralig'ida	12,9 foiz
55 va undan yuqori	11,8 foiz

Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) O'zbekistonda davlat xizmatlarini raqamlashtirish va fuqarolarga qulaylik yaratish uchun muhim platforma hisoblanadi. Biroq, bu tizim joriy etilgandan beri turli muammolarga duch kelgan.

Quyida my.gov.uz portali bilan bog'liq asosiy muammolar keltirilgan:

#### 1. Texnik muammolar

• **Muammo:** Portalning ilk yillarda ishlash barqarorligi past bo'lgan, tizim ko'pincha texnik xatoliklar sababli ishlamay qolgan. Shuningdek, ba'zi foydalanuvchilar uchun saytning yuklanish tezligi past bo'lgan.

<sup>4</sup> „Department.official.gov.uz“.2024-yil 1-aprelda asl nusxadan arxivlangan.15-b.



## 2. Foydalanuvchilar uchun murakkab interfeys

- **Muammo:** Platforma ilk joriy qilinganida foydalanuvchi interfeysi oddiy fuqarolar uchun murakkab va tushunarsiz bo'lgan. Bu esa ko'plab foydalanuvchilarga xizmatlardan to'liq foydalana olmasliklariga sabab bo'lgan.

## 3. Foydalanuvchilarning xabardor emasligi va axborot yetishmasligi

- **Muammo:** Dastlab foydalanuvchilarning portal orqali qanday xizmatlardan foydalanishlari, qaysi hujjatlar talab qilinishi va xizmat narxlari haqida ma'lumot yetarli darajada taqdim etilmagan.

## 4. Tizimning ishlashda kechikishi va davlat xizmatlari samaradorligi

- **Muammo:** Fuqarolar ba'zi xizmatlar uchun murojaat yuborganlarida uzoq muddat kutishlariga to'g'ri kelgan. Bu davlat idoralari tomonidan ma'lumotlarning tezkorlik bilan ko'rib chiqilmasligi va qayta ishlash jarayonlari vaqt talab qilishi bilan bog'liq bo'lgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, My.gov.uz platformasi bugungi kunda fuqarolarga ko'plab davlat xizmatlarini onlayn tarzda olish imkonini yaratmoqda va doimiy ravishda yaxshilanishlar kiritilmoqda. Bu jarayonlar davlat xizmatlarini raqamlashtirishda katta ahamiyatga ega va tizim fuqarolar uchun yanada qulay, tezkor va ishonchli bo'lishini ta'minlamoqda.

Jahon tajribasida ko'plab davlatlar elektron hukumat tizimlarini joriy etish jarayonida turli muammolarga duch kelishgan va ularni hal qilish uchun samarali yechimlar ishlab chiqqan. Estoniya kabi mamlakatlar raqamlashtirishda ilg'or hisoblanadi<sup>5</sup>. Ular markazlashgan va yuqori darajadagi xavfsizlikka ega elektron hukumat infratuzilmasini yaratdi, bu tizimga barqaror va uzluksiz ishlash imkonini

---

<sup>5</sup> United Nations. E-Government for the People. E-Government Survey 2012 Архивная копия от 22 декабря 2015 на Wayback Machine, ST/ESA/PAD/SER.E/150, ISBN 978-92-1-123190-8 «Table 7.1 E-government development index»



beradi. Portal texnik jihatdan barqaror ishlashi uchun markazlashgan, yuqori darajada himoyalangan server tizimiga o'tish, ehtimoliy yuklanishlarni hisobga olgan holda serverlar quvvatini oshirish lozim. Tizimni muntazam monitoring qilish va aniqlangan kamchiliklarni tezkorlik bilan hal etish barqarorlikni ta'minlaydi. Shuningdek, texnik xizmatlar avtomatik ravishda tizimda mavjud muammolarni aniqlash va yechish jarayonlarini joriy qilishi lozim. Janubiy Koreya va Singapurda foydalanuvchilarning raqamli savodxonligi va qulay interfeys yaratish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Bu mamlakatlarda interaktivlikka urg'u beriladi va portal dizayni foydalanuvchilar uchun maksimal qulay tarzda yaratiladi. Daniya va Estoniya kabi mamlakatlarda elektron xizmatlar haqida foydalanuvchilarni xabardor qilish uchun keng ko'lamli axborot kampaniyalari olib boriladi. Bu jarayonda ommaviy axborot vositalari, o'quv dasturlari va treninglar orqali fuqarolar raqamli xizmatlardan foydalanishga o'rgatiladi.

Tizim xavfsizligini muntazam tekshirish va zaifliklarni aniqlash uchun kiberxavfsizlik bo'yicha doimiy auditlar o'tkazish zarur. Avtomatlashtirilgan jarayonlarni kengaytirish: Davlat xizmatlari jarayonlarida avtomatlashtirilgan texnologiyalarni kengaytirish ish jarayonlarini tezlashtiradi. Yuqoridagi tajribalar va yechimlar Mamlakatimiz rivoji uchun elektron hukumat platformasini yanada samarali va qulay qilishda foydali bo'lishi mumkin. Shu kabi yechimlar davlat xizmatlarining sifatini oshirish, fuqarolar uchun qulaylik yaratish tizim barqarorligini ta'minlash va albatta korupsiya va byurokratiyaga qarshi kurashish uchun yordam beradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'ZBEK TILINING IZOHLI LUG'ATI D XARFI.; «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti.; TOSHKENT.; 2013-y.



**Journal of Analytical Synergy and  
Scientific Horizon ISSN: 3060-5261  
Volume 1, Issue 2, Series B 2025**

2. Manoharan, Aroon P.; Melitski, James; Holzer, Marc (20 January 2022). "Digital Governance: An Assessment of Performance and Best Practices". *Public Organization Review*.
3. Haoyu Zhao and Michael J. Ahn, University of Massachusetts, Boston, USA." E-Government, Corruption Reduction and the Role of Culture".Public Organasition.
4. Department.official.gov.uz“.2024-yil 1-aprelda asl nusxadan arxivlangan.
5. United Nations. E-Government for the People. E-Government Survey 2012 Архивная копия от 22 декабря 2015 на Wayback Machine, ST/ESA/PAD/SER.E/150, ISBN 978-92-1-123190-8 «Table 7.1 E-government development index»